



Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)


Doimiy aholi soni.

Sirdaryo viloyati doimiy aholisi soni 2020-yil 1-oktabr holatiga ko'ra 856,9 ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 10,6 ming kishiga yoki 1,3 % ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 365,3 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 42,6 %), qishloq aholisi soni 491,6 ming kishini (57,4 %) tashkil etdi.

E'tibor bering: 2020-yil yanvar-sentabr

- Aholi soni **10,6 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **15,6 ming nafarni** tashkil etdi.
- FHDYO bo'limlarida **5,8 mingta nikoh** va **0,8 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

Sirdaryo viloyati aholisining umumiy o'sishi (2020-yil yanvar-sentabr oylarida)



Demografik holat

Tumanlar kesimida doimiy aholi sonining o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi

(2019-2020-yillar 1-oktabr holatiga ming kishi)

	2019-yil	2020-yil*	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Sirdaryo viloyati	841,8	856,9	101,8
Guliston sh.	89,9	91,6	101,9
Shirin sh.	18,6	18,9	101,6
Yangiyer sh.	43,0	43,8	101,9
tumanlar:			
Oqoltin	51,7	52,6	101,7
Boyovut	129,0	131,0	101,6
Guliston	71,9	73,5	102,2
Sayxunobod	76,9	78,1	101,6
Mirzaobod	72,8	74,6	102,5
Sardoba	65,5	66,7	101,8
Sirdaryo	127,5	129,5	101,6
Xovos	95,0	96,6	101,7


*) dastlabki ma'lumot

Viloyat tumanlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2020-yil 1-oktabr holatiga ko'ra eng ko'p aholi soni Boyovut tumanida 131,0 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 15,3 % ni) va Sirdaryo tumanida 129,5 ming kishini (15,1 %), aksincha eng kam aholi soni Shirin shahrida 18,9 ming kishi (2,2 %) va Yangiyer shahrida 43,8 ming kishini (5,1 %) tashkil etdi.


Tumanlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2019-yilning mos davriga nisbatan Mirzaobod tumanida 2,5 % ni, Guliston tumanida 2,2 % ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati Shirin shahrida 1,6 % ni tashkil etdi.

Demografik holat

Tumanlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2020-yil 1-oktabr holatiga ming kishi)



Tumanlar kesimida doimiy aholi sonining shahar va qishloqlarga bo`linishi (2020-yil 1-oktabr holatiga, % da)




Demografik holat

Jinsi bo`yicha doimiy aholi sonining bo`linishi (2020-yil 1-oktabr holatiga, ming kishi)

	erkak	ayol
Sirdaryo viloyati	430,3	426,6
Guliston sh.	45,9	45,7
Shirin sh.	9,3	9,6
Yangiyer sh.	21,9	21,9
<i>tumanlar:</i>		
Oqoltin t.	26,5	26,1
Boyovut t.	66,1	64,9
Guliston t.	36,4	37,1
Sayxunobod t.	38,9	39,2
Mirzaobod t.	38,7	35,9
Sardoba t.	33,9	32,8
Sirdaryo t.	64,5	65,0
Xovos t.	48,2	48,4

Tumanlar kesimida aholi zichligi (2020-yil 1-oktabr holatiga to`g`ri keladigan aholi, 1 kv kmga)



Demografik holat


Tug'ilish. 2020-yilning yanvar-sentabr oylarida 15,6 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 24,4 promilleni tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 0,2 promillega ko'paygan (2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida 24,2 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2019-yilning mos davriga nisbatan Guliston shahrida (21,8 promilledan 29,1 promillega), Yangiyer shahrida (22,1 promilledan 22,7 promillega), Sirdaryo tumanida (22,6 promilledan 22,9 promillega) sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha sezilarli kamayish Mirzaobod tumanida (28,1 promilledan 26,7 promillega) hududlarda qayd etildi.

Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning xomiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

Tumanlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti (2020-yil yanvar-sentabr)



Demografik holat

Sirdaryo viloyati bo`yicha tug`ilganlar soni, kishi (yanvar-sentabr)

	2019-yil.	2020-yil.	O`sinh sur`ati, % da
Sirdaryo viloyati	15542	15580	102,9
Guliston sh.	1456	1983	136,2
Shirin sh.	266	259	97,4
Yangiyer sh.	707	741	104,8
<i>tumanlar:</i>			
Oqoltin	985	906	92,0
Boyovut	2384	2271	95,3
Guliston	1316	1325	100,7
Sayxunobod	1432	1478	103,2
Mirzaobod	1515	1477	97,5
Sardoba	1223	1244	101,7
Sirdaryo	2136	2208	103,4
Xovos	1722	1688	98,0

Nikoh. 2020-yilning yanvar-sentabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 5826 ta nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 9,1 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2019-yilning mos davriga nisbatan Guliston tumanida (130,1 %), ga sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha eng yuqori kamayish sur'atlari Mirzaobod (95,7 %), Oqoltin (96,7 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Nikohdan ajralishlar. 2020-yilning yanvar-sentabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 803 ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralganlik koeffitsiyenti 1,3 promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar soni 2019-yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Guliston (129,8%), Boyovut (124,1 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Tumanlar kesimida nikoh tuzganlar soni va koeffitsiyenti (2020-yil yanvar-sentabr)

	Nikoh tuzganlar	Nikoh koeffitsiyenti
Sirdaryo viloyati	5826	9,1
Guliston sh.	1058	15,5
Shirin sh.	94	6,7
Yangiyer sh.	351	10,8
<i>tumanlar:</i>		
Oqoltin t.	321	8,2
Boyovut t.	852	8,7
Guliston t.	523	9,6
Sayxunobod t.	444	7,6
Mirzaobod t.	398	7,2
Sardoba t.	407	8,2
Sirdaryo t.	763	7,9
Xovos t.	615	8,6

Demografik holat

Tumanlar kesimida nikoh ajralganlar soni va koeffitsiyenti (2020-yil yanvar-sentabr)

	Ajrim	Ajrim koeffitsiyenti
Sirdaryo viloyati	803	1,3
Guliston sh.	142	2,1
Shirin sh.	27	1,9
Yangiyer sh.	56	1,7
<i>tumanlar:</i>		
Oqoltin t.	45	1,2
Boyovut t.	108	1,1
Guliston t.	74	1,4
Sayxunobod t.	45	0,8
Mirzaobod t.	62	1,1
Sardoba t.	49	1,0
Sirdaryo t.	122	1,3
Xovos t.	73	1,0

Sirdaryo viloyati bo'yicha tuzilgan nikohlar va ajrimlar soni, birlik (yanvar-sentabr)

	Tuzilgan nikohlar			Nikohdan ajralishlar		
	2019-yil.	2020-yil.	O'sish sur'ati, % da	2019-yil.	2020-yil.	O'sish sur'ati, % da
Sirdaryo viloyati	5236	5826	111,3	815	803	98,5
Guliston sh.	886	1058	119,4	149	142	95,3
Shirin sh.	87	94	108,0	30	27	90,0
Yangiyer sh.	280	351	125,4	73	56	76,7
<i>tumanlar:</i>						
Oqoltin	332	321	96,7	48	45	93,8
Boyovut	768	852	110,9	87	108	124,1
Guliston	402	523	130,1	57	74	129,8
Sayxunobod	431	444	103,0	57	45	78,9
Mirzaobod	416	398	95,7	60	62	103,3
Sardoba	376	407	108,2	50	49	98,0
Sirdaryo	731	763	104,4	130	122	93,8
Xovos	527	615	116,7	74	73	98,6

Migratsiya. 2020-yil yanvar-sentabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 4,5 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 6,3 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosini minus 1,8 ming kishi bo'lib, 2019-yilning mos davrida minus 0,5 ming kishi bo'lgan.

Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2019-yil yanvar- sentabr	2020-yil yanvar- sentabr
Ko'chib kelganlar	6,5	4,5
Ko'chib ketganlar	6,9	6,3
Migratsiya saldosini	-0,4	-1,8

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Boyovut tumanida (minus 0,4 ming kishi), Guliston shahrida (minus 0,3 ming kishi) qayd etildi.

